

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING PSIXIK RIVOJLANISHI VA SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISH JARAYONINING KOMPLEKS TAHLILI.**Abdukarimova Xolida Shavkat qizi**

Xalqaro Nordik talabasi.

Suyarova Nazira

Angren shahar 37-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18835385>

Annotatsiya. Maqolada 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixik rivojlanishi ko'p qirrali ilmiy yondashuvlar orqali o'rganib chiqdim.

Bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi kognitiv, hissiy, ijtimoiy va biologik omillar tahlil qildim. Dunyo psixologiyasida o'z izini qoldirgan Jean Piaget, Lev Vygotsky, Erik Erikson, Albert Bandura, Daniel Goleman va Lawrence Kohlberg kabi olimlarning nazariy qarashlari o'zbek ta'lim tizimi kontekstida ko'rib chiqdim. Maqola o'qituvchilar, maktab psixologlari va ota-onalar uchun amaliy yo'nalish vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: bola psixikasi, kognitiv rivojlanish, hissiy intellekt, ijtimoiy o'rganish, boshlang'ich ta'lim, psixologik yondashuv, maktab yoshi.

Inson hayotining dastlabki maktab yillarini qamrab oluvchi 7-10 yosh davri psixologik jihatdan favqulodda nozik va hal qiluvchi bosqichdir. Bu davrda bola o'yin orqali o'rganish uslubidan maqsadli o'quv faoliyatiga o'tadi. Uning atrofidagi dunyo kengayadi: faqat oila doirasidan chiqib, maktab jamoasi, o'qituvchi shaxsi va tengdoshlar muhiti bolaning ichki olamiga bevosita ta'sir o'tkaza boshlaydi. Psixika deganda biz shaxsning yaxlit ichki olamini nazarda tutamiz idrok, tafakkur, xotira, iroda, his-tuyg'ular va xarakter xususiyatlari birgalikda bu tizimni tashkil etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisida ushbu tizimning har bir qismi shakllanish jarayonida bo'lib, bu davrda olingan psixologik tajriba va qo'yilgan poydevor keyingi hayot yo'liga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababdan ham bola psixikasini o'rganish faqat pedagogika ilmining vazifasi emas bu nevrologiya, rivojlanish psixologiyasi va ijtimoiy fanlarning kesishmasida turuvchi murakkab tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Maqolaning maqsadi 7-10 yoshli o'quvchilarda psixik rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini etakchi jahon psixologlarining nazariy ishlari orqali tahlil qilish va o'qituvchilar uchun amaliy xulosa olishdir.

Shveytsariyalik olim Jean Piaget¹(1896-1980) bolaning intellektual rivojlanishini biologik pishilish va muhit bilan o'zaro ta'sir orqali izohlab, to'rt bosqichdan iborat model yaratgan.

Olim tasnifida 7-11 yosh "konkret operatsiyalar" bosqichiga to'g'ri keladi. Ushbu bosqichda bolaning tafakkurida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi: mantiqiy fikrlash aniq predmetlar orqali ishlaydi, bola harakatni aqlda qayta bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi (reversibillik), narsalarni belgi va xususiyatlariga ko'ra guruhlash va tartiblash ko'nikmasi paydo bo'ladi, egotsentrik nuqtai nazar asta-sekin zaiflashib, boshqalarning fikrini hisobga olish boshlanadi. Piaget ta'lim nazariyasiga shunday yondashuv taklif qildi: bola o'z tajribasi va mavjud bilimlari asosida yangi tushunchalarni o'zi qurishi lozim. Ushbu jarayonda ikkita asosiy mexanizm ishtirok etadi yangi bilimni mavjud tushunchaga moslashtirish (assimilyatsiya) va yangi bilim ta'sirida mavjud tushunchani qayta shakllantirish (akkomodatsiya). Dars jarayonida tayyor ma'lumot berish o'rniga bolaning o'z xulosasiga kelishiga sharoit yaratish natijani oshiradi.

¹ Jean Piaget

Rus psixologi Lev Vigotskiy² (1896-1934) bola rivojlanishida muhit, muloqot va til omillarining markaziy rolini asoslab bergan. Lev Vigotskiyning eng keng tarqalgan va amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan tushunchasi "Yaqin Rivojlanish Zonasi" (YRZ) bolaning hozirgi mustaqil imkoniyatlari va kattalarning yo'naltirishi ostidagi imkoniyatlari orasidagi masofa sifatida yuritiladi. Uning fikricha, ta'lim aynan shu zonada eng samarali bo'ladi. Juda oson topshiriq bolani rivojlantirishga hissa qo'shmaydi; juda qiyin topshiriq ruhiy zo'riqishga olib keladi; YRZ doirasidagi topshiriq esa maksimal o'sishni ta'minlaydi. Vigotskiy shuningdek "iskorllash" (scaffolding) tushunchasini ilgari surdi o'qituvchi dastlab keng yordam beradi, so'ngra asta-sekin yordamni qisqartiradi va pirovardida o'quvchi mustaqillikka erishadi. Bu uslub 7-10 yoshli o'quvchilar bilan ishlashda yaxshi natija berishi ko'plab pedagogik tadqiqotlarda isbotlangan.

Piaget va Vigotskiy yondashuvlarining qiyosiy ko'rinishi

Mezon	Jean Piaget	Lev Vigotskiy
Rivojlanish manbai	Biologik pishilish va muhit	Ijtimoiy muloqot va til
Tilning o'rni	Tafakkur shakllanganidan keyin paydo bo'ladi	Tafakkurning shakllanishiga asos bo'ladi
O'qituvchi vazifasi	Kuzatuvchi, sharoit yaratuvchi	Faol yo'naltiruvchi va yordamchi
Ta'lim usuli	Mustaqil kashfiyot va tajriba	Hamkorlikda o'rganish (scaffolding)
Kalit tushuncha	Assimilyatsiya / Akkomodatsiya	Yaqin Rivojlanish Zonasi

Amerikalik psixolog Erik Erikson³ (1902-1994) insonning yaxlit hayot yo'lini sakkiz inqirozli bosqich orqali ko'rib chiqdi. 6-12 yosh davri uning modelida to'rtinchi bosqichga "Mehnatsevarlik va kamchilik hissi" muqobiliga to'g'ri keladi. Ushbu davrda bola maktabda topshiriqlarni bajara boshlaydi, o'z kuchini sinab ko'radi va natijaga erishishga intiladi. Agar bolaning harakatlari muvaffaqiyat bilan tugasa, unda o'z kuchiga ishonch va mehnatsevarlik fazilati shakllanadi. Aksincha, doimiy muvaffaqiyatsizlik va atrofdagilarning salbiy munosabati natijasida kamchilik hissi vujudga kelib, bu holat o'quvchining butun keyingi ta'lim yo'lini soya ostida qoldirishi mumkin. Bu nuqtai nazardan o'qituvchining har bir bolaga o'z kuchini namoyon etish imkonini berish nafaqat pedagog majburiyati emas, balki bolaning psixologik sog'lig'ini muhofaza qilish masalasidir.

Amerikalik psixolog Daniel Goleman⁴ (1946-) "Hissiy intellekt" nazariyasini ishlab chiqqan va uning ta'limotiga ko'ra, insonning hayotdagi muvaffaqiyati ko'proq hissiy intellekt darajasiga uzviy bog'liq. Goleman hissiy intellektni beshta asosiy qobiliyat orqali tavsiflab o'tgan:

1. O'z his-tuyg'ularini anglash va nomlash;
2. His-tuyg'ularni nazorat qilish va boshqarish;
3. O'z-o'zini maqsad sari yo'naltira olish;
4. Boshqalar his-tuyg'usini sezish va tushunish (empatiya);

² Lev Vigotskiy

³ Erik Erikson

⁴ Daniel Goleman

5. Munosabatlarni qurishda ijtimoiy ko'nikmalar.

7-10 yoshli bolalarda aynan shu davrda miyaning prefrontal sohasida hissiy boshqaruv uchun javob beruvchi neyron tizimlar rivojlanadi. Goleman aytganidek, sinfdagi xavfsiz, iliq va qo'llab-quvvatlovchi muhit bu jarayonni jadallashtiradi; stress va qo'rquv esa rivojlanishni sekinlashtiradi.

Kanadalik-amerikalik psixolog Albert Bandura⁵ (1925-2021) bolalar atrofdagi odamlarni kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganishini empirik tajribalar bilan ko'rsatdi. Uning "Ijtimoiy o'rganish nazariyasi" (1977) to'rt asosiy jarayonga asoslanadi: e'tibor berish, xotirada saqlash, amalda sinash va motivatsiya. Banduraning eng muhim hissasi "o'z-o'ziga ishonch" (self-efficacy) tushunchasi. Bu bolaning muayyan vazifani bajara olishiga bo'lgan shaxsiy ishonch darajasi. Bu ishonch quyidagi to'rt manbadan to'yinadi: shaxsiy muvaffaqiyat tajribasi, boshqalarning muvaffaqiyatini kuzatish, ijobiy rag'bat va ma'qullash, hamda barqaror hissiy holat.

O'qituvchi uchun bu shuni anglatadi: u nafaqat bilim uzatuvchi, balki o'quvchi uchun namuna, motivatsion kuch va "sen bunga qodirsan" "sen kuchlisan" tuyg'usini uyg'otuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Amerikalik psixolog Lawrence Kolberg⁶ (1927-1987) bolaning axloqiy fikrlashini uch daraja, olti bosqich asosida tahlil qildi. 7-10 yoshli o'quvchi odatda birinchi darajadan ikkinchi darajaga o'tish pallasida ya'ni "konventsional axloq" bo'sag'asida turadi. davrda bola ayb va jazo tushunchalarini bila boshlaydi, qoidalarga rioya qilishni muhim deb anglaydi hamda kattalar hamda tengdoshlarining roziligini qo'lga kiritish sari intiladi. Pedagog bu bosqichda faqat qoidalarni talab qilish bilan cheklanmay, ularning mazmunini tushuntirishi va adolat tamoyilini amalda namoyish etishi lozim.

Zamonaviy neyrofan yutuqlari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf bolasining miyasi jadal o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi.

Bu davrda neyronlar orasidagi aloqa nuqtalari — sinapslar — tez sur'atd shakllanadi.

Miyelin qoplama rivojlanishi ma'lumot uzatish tezligini sezilarli darajada oshiradi.

Prefrontal sohaning — rejalashtirish, diqqat va xulq-atvor nazorati uchun javobgar qismning — hali to'liq etilmaganligi 7-10 yoshli bolalarda uzoq vaqt diqqatni jamlashning, harakatlarni nazorat qilishning va oqibatlarni oldindan ko'ra bilishning qiyinligini izohlab beradi.

Bu holat tabiiy fiziologik jarayon bo'lib, uni qat'iy intizom talablari bilan bartaraf etishga urinish samarasizdir. Neyrologik haqiqat ta'lim jarayoniga bevosita yo'nalish beradi: har 7-10 daqiqada faoliyat turini almashtirish hamda jismoniy harakat elementlarini qo'shish va o'yin asosidagi topshiriqlardan foydalanish bu metodikaviy tavsiyalar emas balki miya fiziologiyasi asosida shakllangan ilmiy zaruriyati ekanini ta'kidlab o'tgan.

7-10 yoshli o'quvchi psixikasining rivojlanish yo'nalishlari

Yo'nalish	Asosiy belgilar	Etakchi olim
Kognitiv	Mantiqiy tafakkur, klassifikatsiya, reversibillik	Jean Piaget
Ijtimoiy-kognitiv	YRZ, muloqot orqali o'rganish, iskorllash	Lev Vigotskiy
Psixosotsiyal	Mehnatsevarlik va kamchilik hissi o'rtasida muvozanat	Erik Erikson

⁵ Albert Bandura

⁶ Lawrence Kolberg

Hissiy	Hissiy intellekt, his-tuyg'ularni boshqarish	Daniel Goleman
Ijtimoiy	Kuzatish orqali o'rganish, o'z-o'ziga ishonch	Albert Bandura
Axloqiy	Qoidalarini anglash, adolat tuyg'usi, rozilik istagi	Lawrence Kolberg
Neyrologik	Sinaptik o'sish, prefrontal sohaning rivojlanishi	Zamonaviy neyrofan

Ko'rib chiqilgan nazariyalar bir-birini to'ldira oladi 7-10 yoshli bolaning psixikasi haqida yaxlit ilmiy yoritib berdim. Erikson va Goleman nazariyalari orqali shuni bilish mumkin bola psixikasini kognitiv rivojlanish bilan cheklab bo'lmaydi. Emotsional va psixosotsiyal rivojlanish akademik muvaffaqiyat bilan doimiy bog'liq. Bandura va Kohlberg esa bolaning ijtimoiy muhit va axloqiy tushunchalar orqali shakllanishini tasdiqlagan. Piaget va Vygotsky — kognitiv rivojlanishning ikki qutbini ifodalasa-da, ularning birlashgan modeli zamonaviy ta'lim metodikasining asosidir bola faol kashfiyot orqali o'rganishi kerak (Piaget), ammo bu jarayon ijtimoiy yordam va muloqot bilan qo'llab-quvvatlanishi zarur (Vygotsky). Neyrologik tadqiqotlar bu nazariyalarning biologik asosini ochib beradi: bolaning miyasi harakat, o'yin, ijobiy hissiyot va ijtimoiy muloqot orqali samaralishaklanadi. Demak, sinfda faqat ma'ruza emas, balki faol, ko'p qirrali va emotsional jihatdan qulay ta'lim muhiti bu faqat pedagogik orzu emas, balki zaruriyatdir.

Xulosa qilib aytganda ushbu davr, ya'ni 7–10 yosh oralig'i, bolaning psixik rivojlanishida eng muhim bosqichidir. Aynan shu yillarda bola o'z fikrini mantiqiy ifodalashni o'rganadi, his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qiladi, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi va yaxshilik-yomonlik, adolat kabi tushunchalarni ongli ravishda anglaydi.

Bu davrda hosil bo'lgan bilim va tajribalar keyingi ta'lim bosqichlari hamda shaxs sifatida shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Tahlil qilingan ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, bola psixikasi murakkab va ko'p qirrali tizim bo'lib, unda kognitiv, hissiy, ijtimoiy va axloqiy jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanishi ko'rib o'tildi. Shuning uchun o'quvchini faqat baholari yoki intizomi orqali baholash to'liq tasavvur bermaydi. Har bir bola o'ziga xos xarakter, qobiliyat va rivojlanish sur'atiga ega bo'lgan mustaqil shaxsdir. Shu sababli o'qituvchi, maktab psixologi va ota-onalarning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ular bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, uni qo'llab-quvvatlashi, rag'batlantirishi va sog'lom psixologik muhit yaratishi shart. Faqat shundagina bola o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta oladi va barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam poydevorini ishlab chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
3. Erikson, E. H. (1963). *Childhood and Society* (2nd ed.). New York: W. W. Norton & Company.
4. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books.
5. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

6. Kohlberg, L. (1981). *The Philosophy of Moral Development*. San Francisco: Harper & Row.
7. Blakemore, S. J., & Frith, U. (2005). *The Learning Brain: Lessons for Education*. Oxford: Blackwell Publishing.
8. Shaffer, D. R., & Kipp, K. (2013). *Developmental Psychology: Childhood and Adolescence* (9th ed.). Cengage Learning.
9. Nishonova, Z. T. (2019). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. G'oziyev, E. (2010). *Psixologiya*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.